




“TASDIQLAYMAN”
SX, SS, M va AMM boshqarmasi
boshlig'i-bosh mutaxassis

Uz Xaydarov
«08» 08.06.2024


Qayd raqami _____

“O’zbekneftgaz” AJ
“Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJ
MTRB xizmati
RO’YXATGA OLINDI
0741 D31 4537
2024 yil 06.08.

Texnik topshiriq

“Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJ, “Oqova suvlarning hosil bo’lish manbalari xatlovi” va “Oqovaning yo’l quyiladigan cheklangan miqdori” (ПДС) ekologik me’yoriy hujjatini ishlab chiqish.

ShGKM 2024 yil

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Nomi

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ, "Oqova suvlarning hosil bo'lish manbalarini xatlovi" va "Oqovaning yo'l quyiladigan cheklangan miqdori" (ПДС) ekologik me'yoriy hujjatini ishlab chiqish.

1.2. Xizmat ko'rsatishga asos va maqsad

Asos: O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 yanvardagi 14 – sonli "Ekologik me'yoriy hujjatlar loyihamarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori va AMMXning 2025 yilda bajarilishi rejalshtirilgan ish va xizmatlar uchun yillik buyurtmasi.

Maqsad: O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun talablari asosida, "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan oqovalar miqdorini nazorat qilish

2. XIZMAT KO'RSATISH JOYI.

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Sho'rtan qo'rg'oni "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ, 180300

3. XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI.

Ekologik me'yoriy hujjat loyihamarini ishlab chiqish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xatlovdan o'tkazish va xatlov hujjatlarini tasdiqlatish muddati - 2025 yil 01 martgacha;
- me'yoriy loyihami ishlab chiqish va davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olish muddati - 2025 yil 31 maygacha.

4. XIZMAT KO'RSATISHGA UMUMIY TALABLAR.

- "Oqova suvlarning hosil bo'lish manbalarini xatlovi" va "Oqovaning yo'l quyiladigan cheklangan miqdori" (ПДС) ekologik me'yoriy loyihami **davlat tili (lotin alifbosi)**da ishlab chiqilishi shart.
- "Oqova suvlarning hosil bo'lish manbalarini xatlovi" va "Oqovaning yo'l quyiladigan cheklangan miqdori" (ПДС) me'yoriy loyihami hujjatini ishlab chiqiladi.
- Me'yoriy hujjatni ishlab chiqishda, tahlillarini akreditatsiyalangan yoki attestatsiyalangan davlat qiyoslov organlarida sinovdan o'tgan asbob va anjomlar bilan jihozlangan laboratoriyalarda olib borilishi shart.

Me'yoriy hujjatni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 yanvardagi 14 – sonli "Ekologik me'yoriy hujjatlar loyihamarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori talablari asosida ishlab chiqiladi va ekologik ekspertiza ijobiy xulosasi



olish uchun mos ravishda tayyorlanishi shart.

5. XIZMAT KO'RSATISH NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH.

Ekologik normativ loyihani ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 yanvardagi 14-sonli "Ekologik me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori asosida ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ishlar shartnomaga asosan "Bajaruvchi" tomonidan olib boriladi. Ishlar to'liq yakunlangach, ya'ni ijobiy ekologik ekspertiza xulosasi olingandan so'ng, "Buyurtmachi" bilan topshirish va qabul qilish dalolatnomasi tuziladi.

6. IJROCHI MALAKASIGA TALABLAR.

- Ish bajaruvchi yuridik shaxs bo'lishi;
- o'z nizomiga ega bo'lishi;
- sertifikat (yoki mazkur ishlar bilan shug'ullanishga tegishli joylardan ruxsatnoma)ga ega bo'lishi;
- Ishlarni bajarish uchun malakali kadrlarga ega bo'lishi;
- Ish bajaruvchi loyihaviy hujjatlar ishlab chiqish uchun tegishli tajribaga ega bo'lishi hamda oxirgi 3 yil davomida ilg'or korxonalar uchun loyihaviy hujjatlar ishlab chiqish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

7. IJROCHI TOMONIDAN TAQDIM QILINADIGAN XUJJATLAR RO'YXATI.

- 1.Yuridik tashkilotning Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma.
- 2.Tashkilot nizomi.
- 3.Kimyoiy tahlil o'tkazadigan laboratoriyaning akreditatsiya yoki attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi shahodatnomasi nusxasini.
- 4.Tijorat taklif (Ekologik me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish kalkulyatsiyasi bilan birga).

8. IJROCHI KORXONAGA TALABLAR

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun va tartib qoidalar, shartnomalar asosida, "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ ekologik me'yoriy hujjati

1. "**Oqova suvlarning hosil bo'lish manbalarini xatlovi**" va "**Oqovaning yod quyiladigan cheklangan miqdori**" ekologik me'yoriy loyihasini ishlab chiqish.

9. TO'LOV ShARTLARI

25 % oldindan to‘lov, loyiha hujjati to‘liq ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishlari vazirligidan ijobiy ekologik ekspertiza xulosasi olingandan keyin shartnoma summasining qolgan qismi tuzilgan dalolatnoma asosida to‘lab beriladi.

Ishlab chiqdi:

AMMX muhandisi

118

Sh. Islomov

Kelishildi:

AMMX boshlig‘i

[Signature]

Sh.Urishov

SS va MM xizmati boshlig‘i



Z. Rashidov

MTRB guruhi texnigi

[Signature]

Sh. Bozorov

